

RAQAMLI AXBOROT MANZILIDA YOSHLARNI AXBOROT XURUJIGA NISBATAN PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna

Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya”

kafedrası dotsenti, ps. f.d. (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15273041>

Bugungi kunda butun dunyoda falsafiy siyosiy madaniyat va mafkuraga oid olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati raqamli axborot va media sohasini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsa, ular orasida dolzarb masalalar qatoridan o'rin olgan va keng jamoatchilikning diqqat e'tiboridagi muammolardan biri – bu yoshlarning raqamli axborot manzillarida joylashtirilayotgan axborotlarni qabul qilishga va ulardan psixologik o'z o'zini himoya qilishga qay darajada tayyor ekanligini o'rganishdan iboratdir.

Ma'lumki, jamiyatimizda aholining axborotga bo'lgan talab va ehtiyoji ortib bormoqda. Zamon bilan hamnafas qadam tashlashga intilayotgan yoshlarimiz esa bugunning eng arzon mahsulotiga aylanib borayotgan axborotga aholining boshqa qatlamlariga nisbatan ko'proq talabgor ekanligi bilan ajralib turadilar. Yoshlar orasida raqamli texnologiyalar va internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni tobora ortib borayotganligi tabiiy holga aylanib qoldi. Bunday hol jamiyat rivojlanishining belgisi sifatida bir jihatdan kishini quvontiradi, ikkinchi tomondan esa ma'lum ma'noda shaxs psixologik himoyasi bilan bog'liq masalaning bir bo'lagi sifatida diqqatni jalb etish lozim bo'lgan muammoga sifatida tashvishlantiradi. Xalqimiz orasida azaldan “Yaxshiga ergashsang – yetarsan murodga, yomonga ergashsang – qolarsan uyatga”, degan xalq maqoli bor.

Darhaqiqat, bugungi kunda ochiq axborot tizimlari – matbuot, radio, OAV, internet tarmoqlari, norasmiy muloqotlar orqali uzatilayotgan ma'lumotlarning barchasi ham shaxs va jamiyat uchun foydali deb bo'lmaydi. Ular orasida shaxs hayoti va tumushi hamda jamiyat tinchligiga xavf soluvchi ma'lumotlarning ham bo'lishi mumkinligini bugun jamiyatdagi keng ilmiy jamoatchilik juda yaxshi fahmlamoqda.

Axborot oqimi bugungi kunda eng arzon va foydalanish imkoniyati ko'p bo'lgan, shuningdek iste'molchisi ham tobora ortib borayotgan tovarga aylanib bormoqda. Ma'lumki, yoshlar hamisha yangilikka intiladi va bu ehtiyojni axborotlar orqali qondirib boradi - bu nuqtai nazaridan qaralsa axborotlarning ko'payishi va tarqatilishi foydali jarayondir.

Lekin uning ayrim salbiy tomonlari ham mavjudki, bu hol axborotlardan himoyalaniish muammosini keltirib chiqarmoqda. Axborotlarning salbiy jihatlari nimadan iboratligini keng jamoatchilik hukmiga quyidagi tarzda havola etishni lozim topdik:

Mamlakatimiz yoshlarining aksariyat qismi internetdan foydalanish imkonini beruvchi turli xil texnikalar, jumladan kompyuter, telefon, planshet kabilardan kundalik hayotda tobora ko'p foydalanmoqda. Bu texnikalardan ular o'zlarining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida foydalanishyapti, ya'ni o'zlari uchun zarur ma'lumotlarni izlayaptilar, o'zlashtirayaptilar hamda bu ma'lumotlardan jamiyat uchun foydali maqsadlarda foydalanyaptilar - bu quvonarli hol. Lekin shuni alohida qayd etish lozimki, bugungi kunda buning aksi o'laroq, mavjud axborotlarni saralab olishni bilmaydigan, ilmiy atama bilan ifodalaganda, axborot psixologik immuniteti yetarli bo'lmagan yoshlar (hatto katta

yoshdagilar) ham yetarlicha topiladi. Hali hayotiy tajribasi kam bo'lgan yoshlarimizning barchasi ham chetdan kirib kelayotgan ma'lumotlarning qay biri foydaliyu, qay biri xavfli ekanligini tahlil qila oladi, deb ayta olmaymiz.

Turli manbalar orqali tarqatilayotgan axborotlar orasida nafaqat yoshlar uchun keraksiz, balki jamiyatimiz va uning har bir a'zosi uchun xavfli axborotlarning kirib kelayotganligi, ularning ba'zi yoshlar (hatto kattalar) tomonidan ham o'zlashtirilayotganligi, shunday axborotlar oqimi ta'sirida jamiyat uchun yot g'oyalar yoki zararli bo'lgan turli xil oqimlarga a'zo bo'lib kirish, jamiyatning ichki strukturasi qarshi chiqish, o'zining va oila a'zolarining hayotiga havf solish kabi holatlarning kuzatilayotganligi kishini tashvishga soladi. Bunday hol har qanday davlat va jamiyat uchun, qolaversa, shu jamiyatda yashayotgan aholining ma'naviyati uchun xavf soladi va muammolar tug'dirishi hech kinga sir emas.

Shuni hisobga olgan holda, aytish mumkinki, keyingi yillarda shaxs, jamiyat va davlatga tahdidlar orasida eng qo'rqinchlisi axborot tahdidi bo'lib qoldi. Bu tahdid shunday universal xarakterga egaki, u barcha sohalarga jiddiy salbiy ta'sir qila oladi. Jumladan: shaxs dunyoqarashiga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga, jamiyatning barqarorligiga, davlatning tinchligiga va oxir oqibat har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga ham salbiy ta'sir ko'rsata oladigan xavfdir.

Salbiy axborotlarning yana bir xavfli jihati shundaki, ularning davlatga, jamiyatga, qolaversa shaxs ongiga kirib kelishi unchalik ko'zga tashlanmaydigan jarayon sifatida amalga oshadi. Shuning uchun hech qaysi davlat, jamiyat va shaxs o'zi uchun zararli bo'lgan axborotni darhol farqlay olmaydi va undan o'zini himoyalay ham olmaydi. Demak, bugungi kunda har bir jamiyat o'zini ochiq axborot tizimlari orqali uyushtirilayotgan axborot xurujidan himoyalash chora tadbirlarini ishlab chiqishga majburdir.

Yuqorida bugungi kunda axborotga talabgor eng asosiy qatlam yoshlar ekanligi ta'kidlandi, ayniqsa talaba yoshlar dunyo axborot bozoridagi axborotlarni o'zlashtirish uchun keng imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyati hamda axborot psixologik immunitetni shakllantirish bugungi kunda ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bo'lmog'i lozim va bu borada quyidagilarni alohida qayd etish lozim.

Talabalarda ochiq axborot tizimlarida aylanuvchi axborotlarni baholash uchun zarur bo'lgan axborot psixologik immunitetni hosil qilish maqsadida fanlar kesimida imkon darajasida ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmasini hosil qilish uchun mustaqil ta'lim soatlarida bahs munozalari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Talabalarda olinayotgan axborotlarga nisbatan oqilona yondoshib, ongli ravishda munosabat bildirish madaniyatini tarbiyalash maqsadida ular bilan bu borada turli xil ma'naviy va madaniy tadbirlarni o'tkazish yaxshi natija beradi.

Talabalarni u yoki bu axborotdan qanday maqsad ko'zlangani va u kimning manfaatiga xizmat qilishini aniq tahlil qilishga hamda belgilashga o'rgatish maqsadida turli xil trening mashg'ulotlari o'tkazilsa samaradorlik ortishi mumkin.

Aytish mumkinki, bunday ta'limning samarasi natijasi o'laroq talabalarning aksariyati hozirgi kunda yoshlar ongiga qanday axborotlar xavf solayotganligi, bu axborotlarni tarqatuvchilarning maqsadi, axborot xurujining shaxs, jamiyat va davlatga ta'siri, axborotlarni tahlil qila olish uchun nimalarga e'tibor berish lozimligi va axborot xurujidan himoyalash

yo'llari haqida tasavvurga ega bo'ldilar va shu asosda ularda axborot psixologik immunitet shakllandi, rivojlandi, deysish mumkin. Ijobiy va salbiy axborotlarni farqlash, foydali axborotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun har bir shaxs ongi rivojlangan, o'zi esa mustahkam irodali bo'lishi talab etiladi. Buning uchun ta'lim jarayonida yoshlarimizni aynan shu yo'nalishda tarbiyalashga e'tibor qaratishimiz darkor.

Ma'lumki, mustaqil dunyoqarashga ega bo'lgan ma'lumotli kishilargina turli xil talqindagi tazyiqlarga turib bera oladilar. Shuningdek, mana shunday kishilargina jamiyat himoyasi uchun tegishli ijobiy muhit yarata oladilar va milliy g'oyalarning darg'alari hisoblanadilar. Demak, talabalarni ana shunday shaxs etib tarbiyalash uchun ham ta'lim tizimi nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Axborotiy kurashga qarshilik ko'rsatishning bosh omili va mustahkam fundamenti – Yangi O'zbekistonning milliy g'oyasini yoshlar ongiga chuqur singdirish ekanligini anglagan holda yoshlar bilan ishlaydigan har bir mutaxassis quyidagilarni o'z oldiga vazifa qilib qo'yishi lozim:

- Yoshlarda O'zbekiston tez orada rivojlangan davlatlarning eng oldi qatorida turishiga mustahkam ishonch hosil qilish;
- Yoshlarga O'zbekiston - O'ziga Beklar makoni ekanligi, shu mamlakat fuqarosi sifatida har bir yosh boshqalarning madaniyatiga, boshqalarning boyligiga qul bo'lmasdan, o'z madaniyati va boyligiga BEK bo'lib yashashga intilishi lozimligini tushuntirish;
- Yoshlarga O'zbekistonni ota-onasi va yaqinlarini sevgani kabi sevishi hamda uni asrashi kerakligini anglatish!

Shularni amalga oshirish orqali jamiyat va davlatga bo'ladigan axborot xurujiga nisbatan o'zi ham hissa qo'shayotganligini anglagan holda faxr tuyg'usini his etish. Shundagina O'zbekistonning gullab-yashnashiga hissa qo'shgan bo'lamiz.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Qodirov. Yoshlar va axborot-psixologik xavfsizlik. // Zamonaviy ta'lim jurnali. 2014, 4-son, 45-50 b.
2. N.Ismoilova. Yoshlar ongini axborot xurujidan psixologik himoyalash. // "Uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirish: muammo va istiqbollar"// Resp ilmiy-amaliy konf.- 2018, 124 -126 b.